

PAPER

## O'QUVCHILARNING MANTIQIY TAFAKKURINI OSHIRISH YO'LLARI (TABIIY FAN MISOLIDA)

Boychayeva Sharifa Saidkulovna<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Sirdaryo viloyati Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

\* boychayeva@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida tabiiy fan darsligini o'rganish jarayonlarida mantiqiy topshiriqlarning o'rni va foydalanish jarayonlari haqida fikr bildirilgan.

**Key words:** tabiiy, tafakkur, qobiliyat, masad, topshiriq natija

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sون qarori ijrosiga muvofiq zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash va natiyalarga erishish belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" asosida ushbu dasturlarda ishtirok etish masalasi yanada mustahkamlab qo'yildi. Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra PISA baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2030-yilga kelib, bиринчи 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirish maqsadlari ilgari surilgan.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimida ta'lif sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar o'qituvchilariga mo'ljalangan tabiiy savodxonlik bo'yicha o'quv dasturi va shu asosda trening mashg'ulotlarida foydalanish uchun ochiq bazalardan olingan topshiriq materiallari ishlab chiqildi. Bunda o'quv dasturida umumiyo o'rta ta'lif davlat ta'lif standartlarini bajarish, o'qituvchilar ehtiyojlarini va o'quvchilarning yosh xususiyatini inobatga olish, hamda bugungi talablarga mos kelishi e'tiborga olindi.

Ushbu maqsadli ko'rsatkichlar ortida, O'zbekistonning milliy ta'lif tizimini rivojlantirish, jozibadorligini oshirish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi

fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan milliy baholash tizimini yaratish maqsadlari ilgari surilgan.

Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalarini bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish yosh o'quvchilarda kognitiv rivojlanish, atrof-muhitga oid ong va ilmiy savodxonlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Tadqiqotga asoslangan ta'lif, amaliy mashg'ulotlar va fanlararo yondashuvlardan foydalangan holda, o'qituvchilar o'quvchilarni atrofdagi dunyoni o'rganish va tushunishga ilhomlantiradigan qiziqarli va samarali tabiatshunoslik dars jarayonlarini yaratishi mumkin. Tabiiy fanlar bilan erta tanishish nafaqat o'quvchilarga akademik foya keltiradi, balki ilm-fanga umrbod qiziqish va atrof-muhitni muhofaza qilish majburiyatini rivojlantradi.


Tabiiy fanlarda turli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar bilimini oshirishga, eslab qolish, mantiqiy tafakkurini kengaytirish, xotiralarini mustahkamlash kabi bir qancha omillarga sabab bo'ladi. Misol tariqasida bir-ikki mashqlarga to'xtalib o'tsak.

O'quvchi bunda tabiiy fandan o'rgangan bilimlariga asoslanib quyidagi jadvaldagi vazifani bajarishlari kerak. Karotin moddasini yana qaysi sabzovot va meva turlarida ko'rishimiz mumkin? Rasmga qarab ularni belgilang va nomlarini yozing.

<b>Karotin ko'p uchraydigan sabzovot va mevalarni belgilang</b>	<b>Karotin ko'p uchraydigan sabzovot va meva nomlari yozing</b>

Bu jadvalni to'dirish uchun o'quvchi darslikda olgan bilimlariga tayangan holda javob beradi. Yoki bo'lmasam darslikda hayvonlarni o'rganish jarayonida quyidagicha savollar bilan murojat qilishimiz mumkin.

Hayvonlar qanday harakatlanadi? Harakatlanish jarayonini yozing. Misol uchun qush uchadi yoki kapalak uchadi.



Kabi bo'lishi mumkin. Har bir jonivorni harakatlanish tartibini aytadi va ularning nomlanishini yozib ko'rsatadi.

## Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki tabiiy fanlar-bu tabiiy hodisalarini belgilovchi farazlarni tajribada tekshirish va shu orgali nazariya yoki amaliy bilimlarni umumlashtiruvchi fandir. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda dastlabki tushunchalar beriladi. Unda har bir darsni o'tish jarayonida shu dars boshqa fanlar bilan bevosita bog'lab o'tilishi lozim. Masalan, eng dastlabki tushunchalar, tabiatda o'zini tutish qoidalar, gullarni uzmashlik, daraxt shohlarini sindirmaslik kerakligini xalq pedagogikasi materiallaridan foydalangan holda, tarbiya darslariga bog'lab, fanlararo aloqadorlikda tushuntiriladi.

Keyinchalik tabiiy o'quv fanlari takomillashtiriladi. Unda asosan o'rab turgan tabiat, undagi jismalar, tuproq, suv, havo, foydali qazilmalar, shuningdek, o'simlik va hayvonat dunyosi, sog'liqni va tabiatni himoyalash kabilar haqida tushunchalar beriladi. Masalan, foydali qazilmalar haqida, uning davlat tayanchi ekanligi uqtiriladi. U davlat iqtisodining sezilarli qismini tashkil qiladi. Lekin ulardan ham noo'rin foydalanan oqibati taqchilikka olib kelishi tushutiriladi. Yana mashg'ulotlar davomida tabiiy jarayonlar bilan bog'liq o'quv materiallari tanishtiriladi. Mazkur jarayonda o'quvchilarga tabiatga oid mustaqil ishlar, ko'rgazmalar, she'rlar va hikoyalar tanlovlari haqida kerakli ilmiy manbalar beriladi. Unda tabiatni muhofaza

qilishga bag'ishlangan davlat qonunlari, "Qizil kitob" kabi tushunchalarni muntazam tashuntirilib boriladi. Biz ushbu maqolamizda tabiiy fanga oid bo'lgan topshiriq va testlardan foydalandik va ushbu topshiriqlardan o'qituvchilar o'z dars jarayonida takomillashtirib tadbiq etish imkonini mavjud.

## Adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
- Xalqaro baholash daturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik.4-bet. O'quv qo'llanma.Toshkent: 2023-y.
- Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. « Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiysi. 20-bet/
- "Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar"respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarini o'qitish va uning ahamiyati. 44-bet
- Marjona Alisher qizi Abdukarimova.Tabiiy fanlar o'qitishda STEAM yondashuvu."Science and Education"Scientific Journal / www.openscience.uz November 2024 / Volume 5 Issue 11
- (<https://academy.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-qizil-kitobi-respublikamiz-o'simlik-dunyosida-qanday-ozgarishlar-yuz-berdi>). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti materiallaridan foydalnildi.
- Y.V.Malikova. Tabiiy fanlar. 4-sinf. I-qism.O'rta umumiy ta'lim maktablari uchun darslik. Novda. Toshkent-2023 yil.
- Ahliddinov R. Hozirgi bosqichda pedagogik boshqaruvning dolzarb muammolari //Respublika ilmiy-amaliy konf. mat.-T: O'zPFITI, 2002. - 46 b.
- Mirzaxmedova Sh.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: p.f.n., diss.... - T: O'zPFITI, 2006. - 175 b